



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 5-sinflar uchun*  
*I chorak tarixi fanidan*

# **DARS**

# **ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 5-sinf tarixi fanidan I chorak uchun  
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Kirish. O‘zbekiston — Vatanim manim	1		
2.	Tarixiy fani nimani o‘rganadi?	1		
3.	Amaliy dars: Siz viloyatingiz, shahringiz, tumaningiz, qishlog‘ingiz va mahallangizning tarixini bilasizmi?	1		
4.	Kalendarlar tarixidan	1		
5.	Xronologiya haqida	1		
6.	Tarixda yil hisobi	1		
7.	Tarixni o‘rganishda arxeologiyaning o‘rni	1		
8.	Dunyo xaritasi tarixi	1		
9.	<b>1-Nazorat ishi</b>	1		
10.	Qadimgi odamlar va ularning manzilgohlari	1		
11.	San‘atning paydo bo‘lishi	1		
12.	Yozuv – insoniyatning buyuk kashfiyoti	1		
13.	“Avesto” – ajdodlarimiz yaratgan ilk yozma tarixiy manba	1		
14.	Muzeylar	1		
15.	Muzeylar	1		
16.	Afsona va rivoyatlar	1		
17.	<b>2-Nazorat ishi</b>	1		
18.	Qadimgi shaharlar paydo bo‘lishi	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Kirish. O‘zbekiston — Vatanim manim**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo‘lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an’analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shish tushunchalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an’analar va h.k.) hurmat qilish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e‘lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Vatan ta’rifi .Vatan! Bu so‘z zamirida olam-olam ma’no bor. Vatan – aziz muqaddas va mo‘tabar yurt.

**Yodda tuting!**

«*Vatan*» arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt degan ma’noni anglatadi. Vatan – biz tug‘ilgan makon. Kindik qonimiz to‘kilgan tuproq.

Vatan – bu oltinbeshik. Ota-onamiz, qarindoshlarimiz va do‘stlarimiz bilan birga yashayotgan zamin. Bobolarimizning izlari qolgan yer. Ajdodlarimiz yurti, yurakdagi javohirdir. Vatan – jonajon shahringiz va qishlog‘ingiz. Insonning qalbi, orzu-umidlari, quvonchlari va kelajagi Vatani bilan chambarchas bog‘liqdir. «Muqaddas Vatan» birikmasi «Mo‘tabar ona» birikmasi bilan yonma-yon turadi. Chunki Vatan ham ona kabi yagonadir. Siz kinofilmlarda turli sabablarga ko‘ra uzoq muddat chet ellarda bo‘lib, o‘z Vataniga qaytgan kishilarning samolyotdan yoki poyezddan tushgach, tiz cho‘kib, ona Vatanlarining tuprog‘ini o‘pganlarini va ko‘zlariga surtganlarini ko‘rgansiz. Bu manzarada ularning Vatanga bo‘lgan muhabbatlari, Vatanning sajdagohdek muqaddas ekanligining yorqin namunasini ko‘ramiz.



**O‘zbekiston – bizning Vatanimiz.** O‘zbekiston o‘tmishda Turon, Movarounnahr va Turkiston nomlari bilan ataldi. Yurtimiz o‘zining go‘zal tabiati, unumdor tuprog‘i, bitmas-tuganmas boyliklari bilan doim barchaning e‘tiborini tortib keldi.

*O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,  
Dostonlarda bitgan guliston.  
O‘zbekiston deya atalur,  
Uni sevib el tilga olur.*

**(H. Olimjon)**

Davlatimiz sal kam uch ming yillik tarixga ega. Bu davrlarda mamlakatimizdan jahon ilm-fanining rivojiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk allomalar (olimlar) yetishib chiqdi. Siz, aziz o‘quvchilar, Vatanimiz O‘zbekistonning kelajagisiz. Bugun O‘zbekiston dunyoning rivojlangan 50 ta davlatidan biri bo‘lishga intilmoqda. Davlatimiz kelajagi esa Siz kabi yoshlar qo‘lida. Hech shubha yo‘qki, Siz Vatanimiz kutganidek uning koriga tayanch bo‘ladigan o‘g‘il-qizlar bo‘lib voyaga yetasiz.

**«Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q».** Dunyodagi zo‘ravon kuchlar qaysi bir xalqni o‘ziga tobe qilmoqchi, bo‘ysundirmoqchi bo‘lsa, avvalo uni oliy qadriyati bo‘lgan tilidan, tarixidan va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi. Bizning o‘tmish tariximiz bunga guvoh. Shuning uchun ham Vataningiz tarixini puxta bilishingiz zarur. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» kitobida «O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutmagan millatning kelajagi yo‘q», deb bejiz ta‘kidlamaganlar. Bu hikmatli so‘z Sizni Vatanimizning nafaqat uzoq o‘tmishdagi tarixini, ayni paytda kechagi tarixini ham chuqur egallashga da‘vat etadi. Vatanimizning o‘tmishi buyuk, uning kelajagi ham, shubhasiz, buyukdir. O‘tmishdagi buyuklik nimalardan iborat bo‘lganligini va kelajakdagi buyuklik yo‘lida qanday ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligini tarix fanini bosqichm-abosqich o‘rganish orqali bilib olasiz.

«**Tarixdan hikoyalar» darsligi bilan ishlash.** Qo‘lingizdagi darslik Sizni tarixning sirli olamiga sayohatga yetaklaydi. Siz mavzularni o‘rganishdan oldin ularning sarlavhasini e‘tibor bilan o‘qing.

«**Yodda tuting!**» deb to‘g‘ri to‘rtburchak ichida ajratib yozilganlarni eslab qolishga harakat qiling.

«**Diqqat bilan o‘qing!**» topshirig‘i Sizni to‘g‘ri to‘rtburchak ichidagi matnning mazmuni haqida mulohaza yuritishga undaydi.

«**O‘zingizni sinang»** topshirig‘i esa darsda olgan bilimlaringizni mustahkamlashingizga xizmat qiladi.

«**Mustaqil ish»** uchun berilgan topshiriqlar Sizda zarur ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

**Mustaqil ish** sizning tarixdan olayotgan bilimingizning ko‘zgusi ekanligini unutmang. Har bir fanning, shu jumladan, tarix fanining ham o‘ziga xos atamalari bor. Shuning uchun ham darslikka

«**Atamalar mazmunini bilib oling»** topshirig‘i bejizga kiritilmagan. Atamalar ma’nosini bilib olish tarix fanini yaxshi anglashga xizmat qiladi.

«**Savol va topshiriqlar»** qismi kelgusi darsga tayyorlanishingizda yordam beradi. Darslikni avaylab tuting. Chunki sizdan keyin bu darslikdan uka va singillaringiz foydalanishadi. Bu Sizning o‘quvchilik burchingizdan biri ekanligini doimo yodda saqlang.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. «Vatan» tushunchasiga ta’rif bering. Siz darsligingizda bu tushunchaga berilgan ta’rifga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz?

2. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» degan hikmatli iboraning mazmuni haqida nimalarni ayta olasiz?

3. Vatan haqida qanday she’rlarni yod olgansiz?

4. Maktabingiz kutubxonasidan Vatanimizni dunyoga tanitgan buyuk siymolar, vatanparvar qahramonlar haqidagi kitoblar nomlarini aniqlang.

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Tarixiy fani nimani o‘rganadi?**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo‘lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an’analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shish tushunchalarini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma’naviy va intellektual kamolotga intilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

Tarixda yil hisobini o‘qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o‘qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o‘qiy oladi. Miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o‘rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Tarix o‘tmish haqidagi fandır.**

**Yodda tuting!**

«*Tarix*» arabcha soʻz boʻlib, «oʻtmish», «oʻtgan voqealar haqida hikoya» degan maʼnolarni anglatadi. Tarix odamlarning eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bosib oʻtgan hayot yoʻlini aks ettiradi. Bugungi hayotni qanday qurganligi, odamlarning uzoq va yaqin oʻtmishda nima bilan mashgʻul boʻlganliklari haqida maʼlumot beradi. Ularning qanday yashaganliklari hamda qanday tarixiy voqealar yuz berganligini oʻrgatadi.



**Tarixiy manba.** Tarix fani tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Xoʻsh, tarixiy manba nima oʻzi?

**Diqqat bilan oʻqing!**

*Tarixiy manba* – bu, inson qoʻli bilan yaratilgan barcha narsalar va yozib qoldirilgan maʼlumotlar hamda kitoblardir. Manbashunos olimlar ularni sinchiklab oʻrganadilar va tarix fani uchun zarur maʼlumotlar toʻplaydilar. Tarixiy manbalar, oʻz navbatida, moddiy (ashyoviy) va yozma manbalarga boʻlinadi.



**Toshdan yasalgan mehnat quroli**



**Devorga chizilgan rasm**



**Toshga aylangan iz**



**Xat yozilgan sopol**

**Moddiy manbalar.** Moddiy manbalar – qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari, ular yashagan makon, turar-joylarning, shuningdek, qalʼa va shaharlarning, uy-roʻzgʻor hamda zebziyat buyumlarining qoldiqlaridir. Shuningdek, qazish natijasida topilgan tangalar, gerblar, muhrlar hamda mehnat qurollaridir. Moddiy manbalarni arxeologlar toʻplashadi. Ular oʻtmishda odamlar yashagan deb taxmin qilingan manzilgohlarda qazish ishlarini olib boradilar. Shu yoʻl bilan moddiy manbalarni tashkil etuvchi turli ashyolarni topadilar. Ularning yaratilgan vaqtini va yoshini aniqlaydilar.

**Yozma manbalar.** Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Bundan qariyb besh ming yil avval ayrim xalqlar oʻsha davrga mos alifbo yaratganlar. Qoyatosh va qattiq buyumlarga oʻsha davr voqealarini yozib qoldirganlar. Keyinchalik hayvon terisi, daraxt پوستlogʻi va qogʻozga yozishni oʻrganganlar, ularni arxivlarda saqlaganlar ularning maʼlum qismi bugungacha yetib kelgan.

Oyoq	Yulduz	Omoich

**Rasmlarning mixxatli belgilarga aylanishi**

O‘zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba – «Avesto» kitobi. Qadimgi Xorazm, Sug‘d, Baqtriya alifbolarida va turkiy harfdan bitilgan yozuvlar ham Vatanimiz tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, qadimgi Eron hukmdorlarining bitiklari, qadimgi Yunoniston (Gretsiya), Rim va Xitoy olim- larining asarlarida ham Vatanimiz tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan.

### **Atamalar mazmunini bilib oling**

**Arxiv** – eski hujjatlar, yozma yodgorliklar saqlanadigan joy.

**Tarixiy hujjatlar** – tarixiy voqea va hodisalar haqida guvohlik beruvchi, arxivlarda saqlanayotgan qaydnomalar (yozuvlar), suratlar.

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Tarix fani haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Tarixiy manbalar nima va ular tarix fani uchun qanday ahamiyatga ega?
3. Moddiy (ashyoviy) va yozma manbalarni taqqoslang. O‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.
4. Vatanimizning qadimgi tarixi haqida yozib qoldirilgan yozma manbalar haqida so‘zlab bering.

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** Yashayotgan hududingizdan topilgan tarixga oid moddiy va yozma manbalarga misollar keltiring.

<b>T/r</b>	<b>Topilgan manbaning turi</b>	<b>Saqlanish holati</b>
<b>1</b>		
<b>2</b>		
<b>3</b>		

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

**49 listdan iborat tarix fanidan**

**5-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**